

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21458266>

Bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda mafkuraviy immunitet barqarorligini ta'minlash tizimi

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna –

Termiz davlat universiteti

Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: norboyevas67@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2161-3919>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslari hamda ushbu jarayonda mafkuraviy immunitet barqarorligini ta'minlash tizimi tadqiq etilgan. Global transformatsiyalar davrida talaba-pedagoglarni mafkuraviy, axborot-psixologik xavfsizlik, e'tiqodlilik va daxldorlik mezonlari asosida tayyorlashning pedagogik determinanti ochib berilgan. Tadqiqot doirasida zamonaviy tahdidlar (ludomaniya, ommaviy madaniyat, diniy ekstremizm)ga qarshi turg'unlikni shakllantirish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, ma'naviy kompetensiya, mafkuraviy immunitet, axborot- psixologik xavfsizlik, e'tiqodlilik, daxldorlik, mafkuraviy savodxonlik, pedagogik tizim.

Система обеспечения устойчивости идеологического иммунитета в развитии базовых духовно-нравственных компетенций будущих педагогов

Аннотация. В статье исследованы концептуальные основы развития базовых духовно-нравственных компетенций будущих учителей в системе высшего образования, а также система обеспечения устойчивости идеологического иммунитета в данном процессе. Раскрыта педагогическая детерминанта подготовки студентов-педагогов в условиях глобальных трансформаций на основе критериев идеологической, информационно-психологической безопасности, убеждённости и сопричастности. В рамках исследования предложена модель формирования устойчивости к современным угрозам (лудомании, массовой культуре, религиозному экстремизму).

Ключевые слова: будущий педагог, духовно-нравственная компетентность, идеологический иммунитет, информационно-психологическая безопасность, убеждённость, сопричастность, идеологическая грамотность, педагогическая система.

A system for ensuring ideological immunity stability in the development of future teachers' basic spiritual and moral competencies

Annotation. This article examines the conceptual foundations of developing core spiritual competencies in future teachers within higher pedagogical education, and the system of ensuring the stability of ideological immunity. The pedagogical determinant of preparing student-pedagogues based on criteria of ideological, informational-psychological security, conviction, and a sense of belonging in the era of global transformations is revealed. A model for developing resilience against modern threats (ludomania, mass culture, religious extremism) is proposed.

Keywords: future pedagogue, spiritual competency, ideological immunity, informational- psychological security, conviction, sense of belonging, ideological literacy, pedagogical system.

KIRISH

Jahon ta'lim makonida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik voqelik axborot oqimining intensivlashuvi va global integratsiya sharoitida talabalarda yot g'oyalarga qarshi turg'unlikni shakllantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan pedagogik islohotlar doirasida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat fan yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan, mafkuraviy xavflardan himoyalangan va kognitiv avtonomiyasi rivojlangan shaxs sifatida shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazaridan yondashilganda, shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning tarixiy-pedagogik manbalari va zamonaviy tamoyillari uzviyligini ta'minlash dolzarb ilmiy muammodir. Bo'lajak pedagoglarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish – bu shunchaki bilimlarni o'zlashtirish emas, balki jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy- ma'naviy jarayonlarga faol va ongli munosabat bildirish, global axborot tizimlaridagi destruktiv ta'sirlarni farqlash hamda o'z tarbiyalanuvchilarida ham ushbu immunitetni shakllantirish qobiliyatidir. Shu bois, maqolada bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy immuniteti barqarorligini ta'minlash tizimining tarkibiy qismlari va funksional mezonlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tayanch ma'naviy kompetensiyalar va mafkuraviy immunitet tushunchalari pedagogik va falsafiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, milliy pedagogika maktabi vakillaridan O.Musurmanovning ishlarida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning konseptual asoslari va milliy qadriyatlar tizimi tadqiq etilgan[1]. Mafkuraviy immunitetning falsafiy-pedagogik tabiati va uning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli Q.Ergashev tomonidan tizimli tahlil qilingan bo'lib, unda g'oyaviy bo'shliqni bartaraf etishning pedagogik vositalari ko'rsatib o'tilgan[2]. Xalqaro miqyosda esa kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsning kognitiv avtonomiyasini rivojlantirish masalalari J.Raven va uning izdoshlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimida tayanch kompetensiyalarni klassifikatsiyalash usullari ishlab chiqilgan[3]. G'arb tadqiqotchilari axborot jamiyatida shaxsning axborot- psixologik xavfsizligini ta'minlash va media-savodxonlikni rivojlantirish masalalarini ta'lim tizimining fundamental asosi sifatida e'tirof etadilar[4]. Shunga qaramay, bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini aynan mafkuraviy immunitet barqarorligi bilan

integratsiyalashgan holda tizimli rivojlantirishning metodologik komponentlari yaxlit pedagogik tizim sifatida yetarli darajada modellashdirilmagan.

Tadqiqot davomida tizimli-tarkibiy, qiyosiy-pedagogik tahlil hamda modellashdirish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik eksperiment va monitoring jarayonlari oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tashkil etildi. Ushbu eksperimental- sinov ishlariga jami 422 nafar respondent (pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari va professor-o'qituvchilari) jalb etildi. Bu esa olingan natijalarning validiligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini tarkib toptirishda mafkuraviy immunitet darajasini o'rganish maqsadida to'rtta asosiy konseptual mezonlar majmuasi aniqlashtirildi va tizimlashtirildi: 1. Mafkuraviy savodxonlik mezon; 2. Axborot-psixologik xavfsizlik mezon; 3. E'tiqodlilik mezon; 4. Daxldorlik mezon.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olingan natijalar va nazariy tahlillar asosida bo'lajak pedagoglarda mafkuraviy immunitet barqarorligini ta'minlash tizimining mezoniy-indikatorli strukturaviy modeli ishlab chiqildi. Quyidagi jadvalda ushbu tizimning tarkibiy qismlari, ularning mazmuni va pedagogik funksiyalari batafsil bayon etilgan.

1-jadval.

**Bo'lajak pedagoglarda mafkuraviy immunitet barqarorligini ta'minlash
tizimining tarkibiy mezonlari va indikatorlari.**

Tizimli mezonlar	Tarkibiy indikatorlar va mazmuni	Pedagogik natija va yo'nalganlik
Mafkuraviy	“Ommaviy madaniyat”, giyohvandlik, odam savdosi, missionerlik, “Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish” niqobi ostidagi soxta g'oyalar, diniy ekstremizm, ludomaniya va loqaydlik kabi tahdidlardan o'zini himoya qila olish. Talabalarda ma'lumotlilikdan manfaatdorlik kayfiyatining borligi, bilim saviyasini oshirishga intilish. Diniy va dunyoviy bilimlarga muqobil munosabat, sohadagi adabiyotlarga ehtiyojning bir maromda saqlanishi.	Destruktiv ta'sirlarga qarshi turg'un mafkuraviy qalqon shakllanishi, kognitiv mustaqillik.
Axborot-psixologik xavfsizlik	Globalashuv va zamonaviy ochiq axborot tizimlarining mohiyati, ahamiyati va sivilizatsiya jarayonida tutgan o'rnini anglash. O'zbekistonda milliy va axborot xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini bilish. Media, madaniy va kasbiy-ijtimoiy darajadagi nomutanosiblik haqidagi ma'lumotlardan xabardorlik.	Manipulyatsiyalarga berilmaslik, axborotlarni saralash (filtratsiya) madaniyati.
E'tiqodlilik	Diniy va dunyoviy bilimlarning muqobilligi negizida mustahkam hayotiy pozitsiya. G'oyaviy beqarorlik, mafkuraviy bo'shliq va tahdidlarga qarshi ichki e'tiqodiy turg'unlik. Ijtimoiy faoliyatida muqobil g'oya va mafkuraga nisbatan oqilona, destruktivlikdan xoli munosabat.	Qadriyatli-orientatsion barqarorlik, kasbiy-pedagogik e'tiqod tizimi.
Daxldorlik	Mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashish. Mahalliychilik, millatchilik, urug'-aymoqchilik va korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha yuqori fuqarolik pozitsiyasi. Dinning asosiy funksiyalari va ularning mafkuraviy immunitetga ta'sirini to'g'ri baholay olish.	Ijtimoiy-pedagogik faollik, davlat va jamiyat taqdiriga daxldorlik tuyg'usi.

O'tkazilgan 422 nafar respondent ishtirokidagi eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayoniga mafkuraviy immunitetni tizimli rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, keys-stadi va kognitiv-avtonom topshiriqlar majmuasi kiritilgandan so'ng, talabalarning diniy va dunyoviy adabiyotlarga bo'lgan muqobil ehtiyoji 24% ga oshgan. Eng

muhimi, media-makondagi axborot-psixologik manipulyatsiyalarni va nomutanosibliklarni aniqlash ko'rsatkichi eksperimental guruhlarda nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini shakllantirish bevosita ularning axborot va g'oyaviy makondagi xavfsizligi bilan bog'liq. B.Ergashev o'z ishlarida mafkuraviy jarayonlarni modellashtirishda ijtimoiy institutlarning o'rniga urg'u bergan bo'lsa[5], mazkur tadqiqotda oliy pedagogik ta'lim bevosita mafkuraviy immunitet barqarorligini ta'minlovchi subyekt sifatida baholanadi. Zamonaviy tahdidlar orasida alohida xavf tug'dirayotgan ludomaniya (qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlarga qaramlik) va internet tarmog'i orqali kirib kelayotgan loqaydlik kayfiyatlariga qarshi kurashishda an'anaviy ma'ruzalardan ko'ra, talabalarda mustaqil tahlil ko'nikmalarini shakllantirish samaraliroq hisoblanadi. Shuningdek, globallashtirish davrida milliy xavfsizlik va axborot-psixologik barqarorlik masalalari ta'lim mazmuniga integratsiya qilinishi zarurligi xalqaro pedagogik standartlarga ham mos keladi[6]. Dinning jamiyatdagi ma'naviy-integrativ funksiyalarini to'g'ri anglash, mahalliylik va urug'-aymoqchilik kabi illatlarga qarshi daxldorlik hissini tarbiyalash bo'lajak o'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy-pedagogik mavqeyini mustahkamlaydi[7]. Bu esa tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan tizimning nafaqat nazariy, balki yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish va mafkuraviy immunitetini ta'minlash yaxlit pedagogik tizim hisoblanib, quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Mafkuraviy savodxonlik, axborot-psixologik xavfsizlik, e'tiqodlilik va daxldorlik mezonlarining o'zaro integratsiyasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy-ma'naviy qiyofasini belgilaydi.
2. Ludomaniya, missionerlik va g'oyaviy beqarorlik kabi tahdidlarga qarshi turg'unlik faqatgina diniy va dunyoviy bilimlarga muqobil munosabat hamda yuksak axborot madaniyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi: talabalarda axborot-psixologik xavfsizlik ko'nikmalarini oshirish maqsadida maxsus media-savodxonlik va mafkuraviy tahlil kurslarini joriy etish; daxldorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish kompetensiyalarini baholovchi keys-tekhnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashev B. Ijtimoiy barqarorlik va mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 202 b.
2. Ergashev Q. Mafkuraviy immunitet shakllanishining pedagogik asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 184 b.
3. Green A. Education, Globalization and the Nation State. – New York: Palgrave Macmillan, 2017. 245 p.
4. Karimov Sh. Pedagogik faoliyatda ma'naviy-axloqiy kompetentlik. – Samarqand: SamDU. nashriyoti, 2022. – 176 b.
5. Musurmanova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 218b.
6. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: Lewis Publishers, 2014. – 320 p.
7. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2019. – 168 p.